

Buxoro viloyatida bajarilgan qurilish ishlari


2025- yil yanvar-aprel oylari uchun

- I. Jami bajarilgan qurilish ishlari
- II. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari
- III. Jami qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti
- IV. Qurilish ishlari bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Jami bajarilgan qurilish ishlari

2025-yilning yanvar-aprel oylarida, Buxoro viloyatida jami 4 322,8 mlrd so'mlik qurilish ishlari bajarilib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 107,6 % ni tashkil etdi.

Bajarilgan qurilish ishlari dinamikasi



	Hajm, mlrd so'm	O'sish sur'ati, %
Buxoro viloyati	4 322,8	107,6
Buxoro sh.	828,5	122,0
Kogon sh.	72,4	63,3
Olot tumani	182,9	101,3
Buxoro tumani	220,8	106,6
Vobkent tumani	94,7	102,2
G'ijduvon tumani	236,5	110,8
Kogon tumani	213,6	102,4
Qorako'l tumani	152,3	66,0
Qorovulbozor tumani	172,2	148,7
Peshku tumani	194,1	106,0
Romitan tumani	314,3	121,8
Jondor tumani	203,0	109,3
Shofirkon tumani	199,7	107,9


Mavzuga doir ko'satkichlar:
[Qurilish ishlari hajmi \(oylik\)](#)
[Qurilish ishlari hajmi \(yillik\)](#)

II. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari

2025- yilning yanvar-aprel oylarida Buxoro viloyatida bajarilgan qurilish ishlaringin iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi quyidagicha:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 62,0 % ulushni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 89,9 % ni tashkil etdi;
- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 26,7 % ulushni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 190,6 % ni tashkil etdi;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 11,3 % ulushni va 2024-yilning mos davriga nisbatan 113,2 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari o'sish sur'ati va hajmi




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha korxona turlari kesimida qurilish ishlari

	Bino va inshootlar qurilishi	Fuqarolik obyektlari qurilishi	Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari
Yirik qurilish tashkilotlari hajmi, mlrd so'm	155,4	272,5	153,9
o'sish sur'ati, %	77,1	158,1	120,6
Kichik korxona va mikrofirmalar hajmi, mlrd so'm	946,0	882,7	335,7
o'sish sur'ati, %	76,2	2,0 m.	110,1
Norasmiy sektor hajmi, mlrd so'm	1 576,6		
o'sish sur'ati, %	102,7		

Mavzuga doir ko'satkichlar:
[Bino va inshootlar qurilishi hajmi \(oylik\)](#)
[Bino va inshootlar qurilishi hajmi \(yillik\)](#)
[Fuqarolik obyektlari qurilishi hajmi \(oylik\)](#)
[Fuqarolik obyektlari qurilishi hajmi \(yillik\)](#)
[Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi \(oylik\)](#)
[Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi \(yillik\)](#)

III. Jami qurilish ishlari hajminingkorxonalar turlari bo'yicha taqsimoti va o'sish sur'ati




Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2025- yilning yanvar-aprel oyida bajarilgan qurilish ishlari hajmi 581,8 mlrd so'mni tashkil etdi. Ko'rib chiqilayotgan davrda qurilish ishlari hajmi 2024- yilning mos davriga nisbatan 116,0 % ni va ularning umumiy hajmdagi ulushi 1,0 % ga ko'payib, 13,5 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 50,1 % i to'g'ri kelib, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2024- yilning mos davriga nisbatan 109,3 % ni tashkil etgan holda 2 164,4 mlrd so'm miqdorida qayd etildi.

Norasmiy sektorda qurilish ishlarining ulushi 36,4 % ni yoki 1 576,6 mlrd so'mni tashkil etib, 2024- yilning mos davriga nisbatan 102,7 % ni tashkil etdi.

Korxona turlari bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'atlari





Hududlar kesimida korxona turlari
bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari

	Hajm, mlrd so'm			O'sish sur'ati, % da		
	Yirik	Kichik va mikrofirma	Norasmiy sektor	Yirik	Kichik va mikrofirma	Norasmiy sektor
Buxoro viloyati	581,8	2 164,4	1 576,6	116,0	109,3	50,1
Buxoro sh.	116,5	559,5	152,5	192,1	119,7	67,5
Kogon sh.	13,8	39,5	19,1	35,0	73,9	54,6
Olot tumani	9,2	132,5	41,2	20,0	137,6	72,5
Buxoro tumani	7,7	149,5	63,6	163,4	106,0	67,7
Vobkent tumani	6,9	51,8	36,0	3,6 m.	101,4	54,7
G'ijduvon tumani	23,9	139,1	73,5	8,8 m.	102,7	58,8
Kogon tumani	29,1	132,2	52,3	117,7	98,8	61,9
Qorako'l tumani	29,7	85,2	37,4	22,9	122,9	55,9
Qorovulbozor tumani	138,7	26,8	6,7	172,4	111,2	15,5
Peshku tumani	5,5	127,5	61,1	2,1 m.	103,9	65,7
Romitan tumani	90,4	155,8	68,1	193,0	102,3	49,6
Jondor tumani	9,6	150,5	42,9	3,9 m.	105,6	74,1
Shofirkon tumani	14,7	143,1	41,9	4,5 m.	101,2	71,7

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlaring eng yuqori o'sish sur'atlari G'ijduvon tumanida (2024- yilning mos davriga nisbatan 8,8 m.), Shofirkon tumani (4,5 m.) va Jondor tumanida (3,9 m.) qayd etildi.

Ko'rib chiqilayotgan davrda kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlaring eng yuqori o'sish sur'atlari Olot tumani (2024- yilning mos davriga nisbatan 137,6 %), Qorako'l tumani (122,9 %) va Buxoro shaxri (119,7 %) kuzatildi.

IV. Qurilish ishlari uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Qurilish ishlari – bino va inshootlarni barpo etish, qayta tiklash, kengaytirish, kapital va joriy ta'mirlash ishlari majmuasi sifatida qurilish ishlab chiqarishining natijasidir.

Qurilish ishlari qiyamatiga qurilish uchastkalarining o'zlashtirish ishlari rejasini tuzish va tayyorlash, suv ta'minoti, issiqqlik, kanalizatsiya, poydevorlarni o'rnatish, devorlarni ko'tarish, bino konstruksiyalarini montaj qilishning sanitar-texnika ishlari, boshqa pudrat ishlari (ishga tushirish va sozlash, gidroyuvish ishlari, yer qatlaminini ochish, texnik-madaniy ishlar va boshqalar) kiritiladi.

Qurilish ishlaringining statistik hisobi hisobot davrining amaldagi narxlarida, qo'shilgan qiymat solig'ini qo'shmagan holda, to'lov muddatidan qat'i nazar, hisobot davrida haqiqatda bajarilgan hajm bo'yicha amalga oshiriladi.

Qurilish ishlari hajmi bo'yicha statistik ma'lumotlar quyidagilar asosida shakllantiriladi:

- a) qurilish faoliyatini olib boruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik);
- b) kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyatining choraklik tanlanma kuzatuv natijalari;

d) jismoniy shaxslar tomonidan yakka tartibdagi uy-joy va noturar-joy obyektlar qurilishi monitoringi bilan shug'ullanuvchi O'zbekiston Respublikasi Davlat kadastrlari palatasining hududiy boshqarmalari statistika hisobotlari;



- e) foydalanishga topshirilgan yakka tartibdagi uy-joylarni tanlama statistik kuzatuvi ma'lumotlari;
- f) yakka tartibdagi uy-joylarni xo'jalik usuli bilan ta'mirlash hajmini statistik baholash.

Metama'lumot uchun havola:

<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1875/Qurilish-ishlari.pdf>

<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1877/Aholi-jon-boshiga-qurilishishlari.pdf>

Tayyorlash uchun mas'ul:
Investitsiyalar va qurilish
statistikasi bo'limi

Ijrochi:
Sh. Xodjaev
65 223-81-99 (8020)

Manzil: